

## 1. Suv qayerda to'planadi?



Globusga qarang. Unda qanday suv havzalarini ko'rish mumkin?

**Suv** Yer sayyorasida eng ko'p tarqalgan modda bo'lib, uning katta qismi okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar va muzliklarda to'plangan.

Quruqlikni o'rabi turgan butun suv yuzasi **jahon okeani** deb ataladi. U 5 ta qismiga bo'linadi: Tinch okean, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy muz okeani va Janubiy okean.



**Dengiz** – bu okeanning quruqlikka tutash qismi. Dengizdagi suv okeandagi suvdan biroz farq qiladi, lekin u ham sho'r va ichish uchun yaroqsiz.

Suv bilan to'lgan katta chuqurliklar **ko'llar** deb ataladi. Ko'ldagi suv sho'r ham, chuchuk ham bo'lishi mumkin. Suvning ta'mi daryolardan ko'liga qanday suv quyilishiga bog'liq.

**Daryolar** o'z harakatini tog'lardan boshlab, dengiz yoki ko'llarda quyilish bilan tugatadi. Ko'pincha daryolar ko'liga qum va mayda tuproq zarralarini olib keladi. Ular ko'l tubiga cho'kadi, natijada ularning tubi asta-sekin ko'tarilib, ko'lda suv o'simliklari paydo bo'ladi. O'simliklar o'sib chiqqan ko'l asta-sekin **botqoqlikka** aylanadi.

## 2. Suv havzalarining turi

Suv saqlanadigan va to'planadigan joylar **suv havzalari** deyiladi. Tabiat tomonidan yaratilgan suv havzalari tabiiy, inson tomonidan yaratilganlari esa sun'iy suv havzalari deyiladi.



Xaritani o'rghaning. Undagi har bir suv havzasi haqida nima deya olasiz. Ushbu suv havzalaridan qaysi biri tabiiy, qaysi biri sun'iy?



Tabiiy suv havzalariga okeanlar, dengizlar, daryolar, ko'llar va botqoqliklar kiradi. Hovuzlar, suv omchorlari, kanallar esa sun'iy suv havzalari hisoblanadi.



"Suv havzalari turlari" klasterini to'ldiring. Tabiiy va sun'iy suv havzalarini belgilang.

### 3. Suv havzalarining asosiy boyligi – suv

Suv nafaqat suv havzalarida saqlanadi. Suvning bir qismi atmosferada bug' yoki bulut ko'rinishida bo'ladi. Boshqa qismi esa yer ostida yashirinib, yerosti daryolarini tashkil etadi. Barcha tirik organizmlarda ham suv mavjud.

Yer yuzidagi suvlarning katta qismini sho'r suvlar tashkil etadi. Hatto tanamizda ham sho'r suv mavjud. Bu – bizning ko'z yoshlarimiz. Biz dengiz suvlarning nafaqat sho'r bo'lganligi uchun, balki undagi haddan ziyod tuzlar organizmimizga tushib, uni zaharlamasligi uchun ham ichmaymiz. Shuning uchun barcha tirik mavjudotlarga chuchuk suv juda ham zarur.

Faqat chuchuk suv ichish inson uchun har doim ham foydali emas. Masalan, yozning issiq kunlarida yoki uzoq yo'l yurilganda, zaxiradagi tuzlar tanamizdan ter orqali chiqib ketadi. Bu yo'qotishlarning o'rnini to'ldirish uchun esa maxsus damlamalar tayyorlab ichish tavsiya etiladi.



Tajriba o'tkazing. 3 ta plastmassa stakanda suv oling. Har bir stakanga quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, damlama tayyorlang. Ularning qaysi biri ichish uchun yoqimli?



Bir stakan qaynagan suv



Bir stakan qaynagan suv, bir choy qoshiq tuz, bir choy qoshiq asal, bir choy qoshiq limon sharbati



Bir stakan qaynagan suv, bir choy qoshiq tuz

#### Bilasizmi?

Uchinchi retsept bo'yicha tayyorlangan suv dengiz suviga juda o'xshaydi.

## 4. Suvni qanday asrash mumkin?

Yer yuzida chuchuk suv sho'r suvgaga qaraganda ancha kam. Shuning uchun ichimlik suvini tejash kerak. Rasmlarga qarang. Biz suvni qayerga ko'proq sarflaymiz? Qanday qilib toza suv sarfini kamaytirish mumkin?

**Dush yoki  
vanna qabul  
qilishda**



**Qo'lni  
yuvishda**



**O'simliklarni  
sug'orishda**



**Tozalash  
va kir  
yuvishda**



**Yegulik  
tayyorlashda**



**Idishlarni  
yuvishda**



Nima uchun suvni qaynatilgan holda ichish kerak? Buning uchun kutubxona va Internet manbalaridan foydalanib, ma'lumot to'plang.



Daftaringizga "Mening foydali odatlarim" nomli so'rovnomaga to'ldiring.



A3 varag'iga "Suvni asrang" mavzusida plakat chizing. Unda suvni tejashning asosiy usullarini ko'rsating.